

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil).- 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Mamataliev Ikrom, Shadmanov Djamaliddin, Hakimova Iroda
TURLI AGROTEKNIK OMILLARNING G'O'ZA NAVLARIDA BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA
TA'SIRI 5-9

Raxmonqulova Lola, Umurzakov Elmurod
SHAFTOLI BITINING LOVIYANI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGIGA
TA'SIRI..... 10-13

Norov Ilxom, Amanova Maxfurat
KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON HOSILDORLIK
KO'RSATKICHIGA 1000 DONA DON VAZNINI TA'SIRI 14-17

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza
O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY MATNLARIDA SEMANTIK MUVOFIQLIK: QIYOSIY
TAHLIL 18-21

Yo'ldoshova Jamila, Xidirova Munajat
QASHQADARYO VOHASIDA UCHRAYDIGAN VESPULA (THOMSON, 1869) AVLODI
TURLARINING MORFOLOGIYASI 22-26

Mustofakulova Maftuna
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV MA'NONING TADQIQI 27-31

Mahkamova Sevinch
RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI BUZILISHINING ASOSIY SHAKLLARI VA ULARNING
MEDIA MAKONDAGI NAMOYON BO'LISHI 32-34

Рустамова Тамилла
СТРУКТУРНЫЕ И ОРИЕНТАЦИОННЫЕ МЕТАФОРЫ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ НЕГАТИВНЫХ
ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ 35-38

Балясникова Марина
ОТ ПРИЗНАКА К СИМВОЛУ: ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ
АНГЛИЙСКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С СУФФИКСОМ -LY 39-42

YURIDIK FANLAR

Eraliyeva Malika
GERMANIYA VA O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL..... 43-46

PEDAGOGIKA FANLARI

Gulamov Shavkat
FALSAFIY DEBATLAR ORQALI IJTIMOYIY MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH 47-52

Mustafoyeva Noila
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LEGAL WRITING COMPETENCE IN
LEGAL EDUCATION 53-57

Darmonova Adolat
BARQAROR TA'LIM MODELLARI ASOSIDA UMUMIY PEDAGOGIKANI RAQAMLI
INTEGRATSIYADA O'QITISHNING ADAPTIV TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH 58-60

Sariboyeva Shaxnoza

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR AXLOQIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI.....61-66

PSIXOLOGIYA FANLARI

Xalikova Guli

O'YIN VA INTERFAOL METODLAR ORQALI TIL O'RGANISH: PSIXOLOGIK VA TEXNOLOGIK YONDASHUV67-72

KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON HOSILDORLIK KO'RSATKICHIGA 1000 DONA DON VAZNINI TA'SIRI

Norov Ilxom Chori o'g'li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi

Tel +99891222-72-21

Email: ilhom_norov94@mail.ru

Amanova Maxfurat Eshmurodovna

Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor,

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida kunjut (*Sesamum indicum.L*) ning 100 ta nav va namunalarining 1000 dona don vaznini va don hosildorligi andoza navlar bilan taqqoslangan holda o'rganildi. Ilmiy tadqiqotda tanlab olingan namunalarning 1000 dona don vazni va don hosildorligi o'zaro bog'liqligi keltirilgan. Maqolada 1000 dona don vazni xamda don hosildorligi yuqori bo'lgan namunalarni tanlash ishlari amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: kunjut, nav, namunalar, 1000 dona don, hosildorlik, tanlash, kolleksiya ko'chatzori.

THE EFFECT OF 1000-GRAIN WEIGHT ON THE GRAIN YIELD INDEX OF SESAME (*SESAMUM INDICUM.L*) VARIETIES AND SAMPLE

Norov Ilxom Chori oglu

Researcher, Southern Research Institute of Agriculture

Amanova Makhfurat Eshmurodovna

Doctor of Agricultural Sciences, Professor,

Tashkent State Agrarian University

Annotation. In this scientific method, the 1000 grain weight and grain yield of 100 varieties and accessions of sesame (*Sesamum indicum.L*) were studied in comparison with standard varieties. The dependence of the mass of 1000 grains on the grain yield of samples selected during scientific research is given. The article selected samples weighing 1000 grains and high grain yield.

Keywords: sesame, variety, samples, 1000 grains, productivity, selection, collection nursery.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i11/n03>

Kirish. Hozirgi kunda kunjut o'rtacha 12,8 million gektar maydonda yetishtiriladi. Dunyoda eng yirik kunjut ishlab chiqaruvchi 7 ta davlat Sudan, Tanzaniya, Myanma, Hindiston, Xitoy, Meksika va Birma kabi davlatlar turadi. 2010 yilda dunyoda 3,84 million tonna kunjut yig'ib olingan bo'lsa, 2016 yilda bu 8 million tonnani tashkil etgan, hamda 2025 yilda bu ko'rsatkich 9,5 million tonna bo'lishi bashorat qilinmoqda. Olimlarning fikri mulohazasiga ko'ra 2009–2020-yillarda kunjut yetishtirish 55% ga, 1500 t dan 663 t gacha, ekin maydoni esa 43% ga, 1500 dan 849 ga kamaydi.

Kunjut o'simligiga global talab qariyb 80 foizga oshdi. Ko'pgina davlatlar Sudan, Hindiston, Nigeriya va Myanma, kunjut urug'lari va undan tayyorlangan mahsulotlarning asosiy

eksportchilari hisoblanadi. Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Eron, Misr, Germaniya va AQSh kabi davlatlar kunjut urug'ining dunyodagi eng yirik importchilari hisoblanadi. [1].

Daniya E va boshqa olimlarni ma'lumotiga ko'ra kunjut seksiyasi va urug'chiligida urug' hosildorligiga eng yuqori bilvosita ta'sir ko'rsatadigan belgilardan ko'sakchadagi urug'lar soni, 1000 dona don og'irligi; va o'simlikdagi novdalar soni kabi belgilar o'rganilgan. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, har bir ko'sakchadagi urug'lar soni urug' hosildorligiga eng ko'p hissa qo'shgan va kunjutni yaxshilash uchun tanlov ko'rsatkichi sifatida foydalanilgan [2].

Ibrahim S. E va boshqa olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra kunjut seleksiyasida urug' hosildorlikiga ko'sakchalar soni, o'simliklar soni, ko'sakchadagi urug'lar soni va 1000 dona don vazni kabi hosil komponentlari va bu xususiyatlarni tanlash kunjutda urug' hosildorligini oshirishda ijobiy belgilar bo'lgan [3].

Alake C.O va boshqa olimlarning tajriba natijalariga ko'ra urug' hosilni umumiy o'zgarishga ya'ni 86,4% o'simlikdagi ko'sakcha og'irligi, 1000 dona don vazni va ko'sakcha sonining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin. Bu belgilarni asosiy tanlov mezon sifatida ishlatilishi mumkinligini anglatadi va Nigeriyada kunjut urug' hosildorligini oshirgan [4].


Bugungi kunda respublikamizda suv tanqisligi masalasi asosiy masalalardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-36-sonli farmonini bajarishda asosiy e'tiborni kam suv talab etadigan moyli ekinlarga qaratish talab etiladi. Respublikamizda kam suv talab etadigan moyli ekinlardan asosan maxsar, zig'ir va kunjut yetishtiriladi. Ushbu ekinlar orasida esa kunjut inson organizmi uchun foydali, jahon bazorida haridorgir eksportbop o'simlik hisoblanadi. Biz tomondan o'tkazilgan 2 yillik (2023-2024) ilmiy tadqiqotlar yuqorida keltirilgan meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Materiallar va uslublar. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutiga qarashli tajriba dalasida o'simliklar genetik resurslari ITI Milliy genbankida saqlanayotgan kunjut jahon genofondidan dunyoning 27 ta davlatlarida turli geografik xududlaridan jamlangan 100 ta namunalarini ekib o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotimizda andoza nav "Toshkentskiy -122" navi xamda 99 ta namunalar, 1 qaytariqda 4 m² maydonga ekib o'rganildi.

Natijalar va munozara. Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, harorat va namlik o'simlik o'suv davrida, asosan don to'lishish fazasida katta ahamiyatga ega.

Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra kolleksiya ko'chatzorida ekib o'rganilgan 100 ta nav va namunalardan 24 ta birlamchi manba ajratib olindi xamda 1000 dona don vazni va don hosildorligi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi.

1000 dona don vazni, donning yirikligi va to'laligini bildiradigan ko'rsatkichdir. Bu navdorlik belgisi bo'lib, shuning bilan birgalikda kuchli darajada to'lishish davridagi iqlim sharoitga bog'liqdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra kunjut nav va namunalarda 1000 dona don vazni ko'rsatkichi tahlil qilinganida, o'rtacha ko'rsatkich 2,4 g dan 3,23 g gacha ekanligi tahlil natijalarida aniqlandi. Andoza nav "Toshkentskiy -122" navida bu ko'rsatkich 2,7 gni tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi.




1- rasm. Kunjut nav va namunalarda 1000 dona don vazni, g. (Qarshi-2023-yil)

1000 dona don vazni ko'rsatkichi bo'yicha andoza navdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 7 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Qolgan kunjut nav va namunalarda bu ko'rsatkich bo'yicha deyarli farq kuzatilmadi.

Kunjut nav va namunalarda hosildorlik ko'rsatkichi muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Tajriba natijalariga ko'ra kunjut nav va namunalarda hosildorlik ko'rsatkichi tahlil qilindi. Tajriba dalasida ekib o'rganilgan kunjutning 100 nav va namunlarning don hosildorligi, mahsuldorlik va sifat ko'rsatkichlari Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining laboratoriya sharoitida aniqlandi.

Barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining asosiy ko'rsatkichi bu hosildorlik hisoblanadi. Boshqa barcha ko'rsatkichlar hosildorlikni oshirishga qaratilgan seleksiya uchun xizmat qiladi. Hosildorlikni yuqori bo'lishida 1000 dona don vazni, bir tup o'simlikdagi ko'sakchalar soni hamda ko'sakchalardagi donlar soni, kabi ko'rsatkichlari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra kunjut nav va namunalarda don hosildorligi tahlil qilinganida, o'rtacha ko'rsatkich 17,7 s/ga dan 30,1 s/ga ekanligi aniqlandi. Andoza navdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar borligi tahlil natijalarida aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra andoza nav "Toshkentskiy-122" navida don hosildorligi 20,0 s/ga bo'lganligi aniqlandi.



2- rasm. Kunjut nav va namunalarda don hosildorligi s/ga.(Qarshi-2023-yil).

Don hosildorligi bo'yicha andoza navlardan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 12 tani tashkil qilgani tahlil natijalarida aniqlandi. andoza navdan hosildorlik ko'rsatkichi bo'yicha past ko'rsatkichni namoyon qilgan namunalar soni esa 6 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi. Qolgan nav va namunlar don hosildorligi bo'yicha andoza navlar bilan deyarli bir xil ko'rsatkichga ega ekanligi tahlil natijalarida aniqlandi.

Xulosa: Tadqiqot natijalariga ko'ra kolleksiya ko'chatzorida o'rganilgan 25 ta kunjut nav va namunalarining 1000 dona don vazni va don hosildorligi tahlil qilinganida andoza nav Tshkentskiy-122 navida don hosildorligi 20,0 s/gani tashkil qilgan bo'lsa, andoza navdan bu ko'rsatkich bo'yich 12 ta namuna yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlandi. 1000 dona don vazni andoza nav Tshkentskiy -122 navida 2,7 gni tashkil qilgan bo'lsa, andoza navdan 1000 dona don vazni bo'yicha 7 ta namuna yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar borligi aniqlandi va birlamchi manba sifatida foydalanish uchun seleksiya ko'chatzorigi tavsiya etildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Chellamuthu M., Subramanian S., Swaminathan M. Genetic Potential and Possible Improvement of Sesamum indicum L //Nuts and Nut Products in Human Health and Nutrition. – IntechOpen, 2020.
2. Daniya E. et al. Correlation and path analysis between seed yield and some weed and quantitative components in two sesame (Sesamum indicum L.) varieties as influenced by seed rate and nitrogen fertilizer. – 2013.
3. Ibrahim S. E. et al. Genotypic correlation and path coefficient analysis of yield and some yield components in sesame (Sesamum indicum L.) //Int. J. Agri. Sci. – 2012. – T. 2. – №. 8. – C. 664-670.
4. Alake C. O. et al. Selection criteria for Nigerian sesame (Sesamum indicum L.) genotypes //Journal of Tropical Agriculture. – 2010. – T. 48. – №. 2. – C. 49-51.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil). – 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.